


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“AGROTEXNOLOGIYA, ISHLAB CHIQARISHNI MEXANIZATSIYALASH  
VA AVTOMATLASHTIRISH” kafedrasi**

**60711400 - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni  
avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo‘jaligida)  
ta’lim yo‘nalishi uchun “ELektrotexnika va elektr yuritmalari”  
fanidan “Asinxron motorlarning elektromexanik va mexanik  
xarakteristikalari” mavzusidagi  
ochiq ma’ruza mashg‘ulotining  
ISHLANMASI**



**Tuzuvchi:**

**Abduganiev Z.** - SamDVMCHBU, “Agrotexnologiya, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

**B.R.Toshtemirov**

- Samarqand agroinnovatsiyalar tadqiqotlar instituti  
“Agrotexnologiya”kafedrasi dotsenti v.b., t.t.f.d.(PhD);

**A.Yo.Xasilbekov**

- “Agrotexnologiya, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish”  
kafedrasi mudiri,dotsent.

**“Asinxron motorlarning elektromexanik va mexanik xarakteristikaları” ma’ruza mashg‘uloti uchun o‘qitish texnologiyasi**

<i>Vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 10 nafar</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	Axborot, vizual ma’ruza
<i>Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi</i>	<p>1.Uch fazali asinxron dvigatel, umumiy tushunchalar.</p> <p>2.Asinxron dvigatellarning ulanish sxemalari.</p> <p>3.Asinxron dvigatelning energetik diagrammasi.</p> <p>4. Asinxron dvigatellarning mexanik tavsiflari.</p> <p>5. Asinxron dvigatellarni ishga tushirish.</p>
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Mavzu to‘g‘risida umumiy tasavvurlarni shakllantirish	
<i>Pedagogik vazifal</i> -uch fazali asinxron dvigatel, umumiy tushunchalar; -asinxron dvigatellarning ulanish sxemalari; -asinxron dvigatelning energetik diagrammasi; -asinxron dvigatellarning mexanik tavsiflari; -asinxron dvigatellarni ishga tushirishini o‘rganish.	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: -uch fazali asinxron dvigatel, umumiy tushunchalar; -asinxron dvigatellarning ulanish sxemalari; -asinxron dvigatelning energetik diagrammasi; -asinxron dvigatellarning mexanik tavsiflari; -asinxron dvigatellarni ishga tushirishni o‘rganadi.
<i>Ta’lim usullari</i>	Axborot ma’ruzasi, Insert, prezentatsiya,
<i>Ta’limni tashkillashtirish shakli</i>	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta’lim vositalari</i>	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo‘r
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	Proektor va kompyuter bilan ta’minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov: - tezkor so‘rov

**Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi**

<i>Ta’lim usullari</i>	Ma’ruza, pinbord, aqliy hujum
<i>Ta’limni tashkillashtirish shakli</i>	Jamoaviy va guruhlarda ishlash
<i>Ta’lim vositalari</i>	Ma’ruza matni, kompyuter, grafikli tashkil etuvchilar
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov: - tezkor so‘rov

### Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xartasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o‘tkazadi.  2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzaning asosiy nazariy qismlarini bayon qiladi.  Jalb qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo‘yicha xulosalar qiladi; eng asosiylariga e’tibor qaratadi; berilayotgan ma’lumotlarni daftarlariiga qayd qilishlarini eslatadi.  2.3. Yozuv taxtasida yozilgan tushunchalarga qaytishni taklif etadi. Talabalar bilan fanga taalluqli bo‘limgan va qaytariluvchi ma’lumotlarni olib tashlaydi, muhim asosiy tushunchalarni kiritadi (Pinbord).	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir- birini takrorlamay atamalarni aytadi.  O‘laydi, javob beradi. Javob beradi va to‘g‘ri javobni eshitadi.  2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.  2.3. Asosiy tushunchalarni muhokama qiladilar. Ma’lumotlarni daftarga qayd qiladilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e’tiborini asosiy masalalarga qaratadi.  Faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiradi.  Mustaqil ish uchun vazifa: “Avtomatika asoslari va ishlab chiqarish jaralarini avtomatlashtirish” so‘ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.  3.2. Topshiriqni yozib oladi.

## **Mavzu: 10. ASINXRON MOTORLARNING ELEKTROMEXANIK VA MEXANIK XARAKTERISTIKALARI**

### **REJA:**

- 1.Uch fazali asinxron dvigatel, umumiy tushunchalar.
- 2.Asinxron dvigatellarning ulanish sxemalari.
- 3.Asinxron dvigatelning energetik diagrammasi.
4. Asinxron dvigatellarning mexanik tavsiflari.
5. Asinxron dvigatellarni ishga tushirish.

### **Tayanch iboralar va tushunchalar**

Uch fazali, asinxron, sinxron, ulanish, sxema, yulduz, uchburchak, mexanik, generator, elektromagnit, tormoz, rejim, rotor, faza, qisqa tutashtirilgan, stator, chulg‘am, kollektor, faza rotorli, energetik, sirpanish, diagramma.

### **Adabiyotlar A1,A2, A6, A7, A8**


1.Asinxron mashinalar sinxron mashinalar kabi stator va rotordan iborat bulib, ularning statori sinxron mashinanikidan farq qilmaydi, ammo uning rotoriga joylashtirilgan qisqa tutashtirilgan yoki faza chulg‘amiga tashqi manbadan hech qanday tok berilmaydi. Shu sababli asinxron mashinaning rotori sinxron bo‘lmagan, ya’ni asinxron tezlik bilan aylanadi. Asinxron mashinalar ham boshqa elektr mashinalari singari dvigatel, generator va elektromagnit tormoz rejimlarida ishlay oladi, ammo ular amalda asosan dvigatel sifatida keng tarqalgan. Konstruksiyasining soddaligi, narxining arzonligi, ishlashda ishonchliligi va shu kabi afzalliklari bilan o‘zgarmas tok va sinxron dvigatellardan farq qiluvchi asinxron dvigatellar sanoat, qishloq xo‘jaligi va qurilishda foydalaniladigan elektr dvigatellarining taxminan 95% inn tashkil etadi.

Asinxron dvigatellarning uch fazali tuzilishdagilari juda keng tarqalgani sababli ularni qisqacha asinxron dvigatellar deyiladi, ya’ni uch fazali so‘zi qo‘shilmaydi. Rotorining tuzilishiga ko‘ra asinxron dvigatellar:

a)qisqa tutashtirilgan va b)faza(kontakt halqali) rotorli dvigatellarga bo‘linadi.

2.Asinxron dvigatellarning statoriga joylashtiriladigan uch fazali chulg‘amning tuzilishi sinxron mashinaning chulg‘amidan farq qilmaydi. Stator chulg‘ami, ko‘pincha, qisqartirilgan qadamli, ikki qatlamlili tuzilishda bo‘ladi. Bu chulg‘amning uchlari dvigatel shchitidagi qismalarga ulanadi (Shakl 10.1). Bunda birinchi faza chulg‘ami  $C_1 - C_4$ , ikkinchisi  $C_2 - C_5$  va uchinchisi  $C_3 - C_6$  bilan belgilanadi.

Chulg‘amlarni yulduz yoki uchburchak sxemasi bilan qulaygina ulash uchun uning uchlari dvigatel shchitining qismalariga biriktirilgan bo‘lib, chulg‘am uchlarni yulduz va uchburchak sxemalari bilan ularsga imkon beradi. Rotorining uzagi elektrotexnik pulat tunukalardan yig‘iladi, sirtqi tomoni pazlar hosil qiluvchi silindr dan iborat bo‘ladi.



Shakl 10.1. Asinxron dvigatelning chulg'aleri va uning ulanishi.

Uyurma toklardan hosil bo‘luvchi quvvat isrofini kamaytirish uchun rotor o‘zagini tashkil qiluvchi har bir po‘lat tunukaning ikki tomoni izolyasiyalovchi lak bilan qoplanadi, qisqa tutashtirilgan rotorli dvigatelning rotor o‘zagi pazlariga alyuminiy yoki mis sterjenlari (tayoqchalar) joylashtirilib, ularning bosh va oxirlari alyuminiy yoki miss halqa bilan uzaro qisqa tutashtiriladi. Bunday chulg‘amli rotorga ega bo‘lgan dvigatel qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatel deyiladi.

Faza rotorli dvigatellarning rotor o‘zagi pazlariga statorniki singari uch fazali chulg‘am o‘rnataladi. Dvigatelning ishga tushirish tokini kamaytirish maqsadida rotor chulg‘ami zanjiriga ketma-ket qilib tashqi qarshilik kiritiladi (Shakl 10.2.a).


Rotor chulg‘ami yulduz sxemasi bilan ulanib, uning har bir fazasiga tashqi qarshilikni kiritish uchun aylanuvchi rotor valiga uchta o‘zaro va valdan izolyasiyalangan halqa o‘rnataladi. Rotordagi faza chulg‘amining uchlari uchta halqaga ulanib, halqalar asa qo‘zg‘almas chutkalar orqali ishga tushirish reostatiga ulanadi.(Shakl 10.2.b).

Rotor chulg‘amining ishga tushirish reostatiga ulanuvchi uchlari,  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$  bilan belgilanadi. Asinxron dvigatelning stator chulg‘amiga uch fazali tok berilsa, u holda

$$n_1 = \frac{60 \cdot f_1}{p}$$

tezlik bilan aylanuvchi magnit maydoni hosil bo‘ladi. Aylanuvchan magnit maydoni rotor chulg‘amini kesib o‘tib, uning yopiq zanjirga ega chulg‘amida E.Yu.K. va, demak, tok hosil qiladi. Rotor chulg‘amidagi tok Bilan statordagi aylanuvchan magnit maydonining o‘zaro ta’siri natijasida aylantiruvchi elektrromagnit moment hosil bo‘lib, natijada natijada dvigatel  $n_2$  tezlik bilan aylana boshlaydi.

Aylantiruvchi momentni hosil qiluvchi kuchlarning yunalishi chap qo‘l qoidasi bilan aniqlanadi. Shunday qilib, dvigatelning statoriga berilgan elektr



Shakl 10. 2. Faza rotorli asinxroi motorinng ulanish sxemasi.

energiyasi elektromagnit jarayoni natijasida rotorni aylantiruvchi mexanik energiyaga aylanadi. Asinxron dvigatelning aylanish yunalishini o'zgartirish uchun stator chulg'amining elektr tarmog'iga ulanadigan har qanday ikki uchini o'zaro almashtirish kifoya. Bunda aylantiruvchi elektromagnit maydoni va unga ergashib aylanuvchi rotoring aylanish yunalishlari teskariga o'zgaradi. Rotoring aylanish tezligi  $n_2$  aylanuvchi magnit maydonining sinxron tezlygi  $n_1$  ga nisbatan hamma vaqt kichik bo'ladi. Haqiqatan, agar  $n_2 = n_1$  bo'lgan taqdirda rotor chulg'amida tok va, demak, aylantiruvchi moment ham hosil bo'lmaydi. Aylanuvchi magnit maidoni va rotor tezliklari farqining sinxron tezlikka nisbati  $s = r_p / n_1$  deb ataladi va  $S$  xarfi bilan belgilanadi. Sirpanishning qiymati quyidagicha topiladi:

$$S = \frac{n_1 - n_2}{n_1}, \quad (10.1)$$

Quvvati 1...100 kvt gacha bo'lgan normal tuzilishdagi asinkron dvigatellarning nominal yuklanmasiga tegishli nominal sirpanish

$S_n = \frac{n_1 - n_n}{n_1} = 0,01 \dots 0,06$  bo'ladi. Asinxron mashinaning dvigatel rejimida  $S = 0 \dots 1$  orasida o'zgaradi. Bunda  $S = 0$  dvigatelning ideal saltish rejima, ya'ni  $M = 0$ ,  $n_2 = n_1$  da sodir bo'lib,  $S = 1$  esa elektr tarmog'iga ulangan dvigatel rotorining tinch xolati, ya'ni  $n_2 = 0$  da sodir bo'ladi. 10.1 ifodaga binoan asinxron dvigatelning aylanish tezligi quyidagicha aniqanadi:


$$n_2 = n_1(1 - S), \quad (10.2)$$

3.Shakl 10.3. da asinxron dvigatelning energetik diagrammasi keltirilgan. Bunda elektr tarmog'idan dvigatelga berilayotgan aktiv quvvat quyidagicha ifodalananadi:

$$P = 3 \cdot U_{1\phi} \cdot I_{1\phi} \cdot \cos \varphi_1, \text{ Vt}, \quad (10.3)$$

Bu quvvatning bir qismi dvigatel po'lat o'zagining va stator chulg'amining qizishiga sarflanadi. Stator chulg'amining qizishiga sarflanadigan quvvat isrofi

$$P_{M.cm} = 3 \cdot I_{1\phi}^2 \cdot R_1 \text{ ga teng bo'ladi.}$$



Shakl 10.3. Asinxron dvigatelning energetik diagrammasi.

$R_1$  quvvatning qolgan qismi elektromagnit usulda rotorga beriladi va elektromagnit quvvat  $R_{em}$  deyiladi. Ushbu quvvatning bir qismi rotor chulg‘amining qizishiga sarflanadi. Rotor chulg‘amining qizishiga sarflanadigan quvvat isrofi  $P_{m.pom} = 3 \cdot I_{2\phi}^2 \cdot R_2$ , vt bo‘ladi. Elektromagnit quvvatning qolgan qismi mexanik quvvat  $R_{mex}$  deyilib, u rotorni harakatga keltirish uchun sarflanadi. Rotordagi mexanik quvvatdan mexanik ishqa lanishlarga sarflanuvchi va qo‘sishimcha quvvat isrofi  $R_q$  ayrilsa, u holda dvigatel va- lidagi foydali quvvat  $R_2$  olinadi.  $R_2$  quvvatning qiymati dvigatel shchitida ko‘rsati- ladi. SHunday qilib,  $R_1$  ning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$P_1 = \frac{P_2}{\eta}, \quad (10.4)$$

bu yerda,  $\eta$  - dvigatelning foydali ish koeffitsenti bo‘lib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$\eta = \frac{P_1 - \sum P}{P_1}, \quad (10.5)$$

bu yerda,

$$\sum P = P_n + P_{m.cm} + P_{m.pom} + P_{mex} + P_k, \quad (10.6)$$

Asinxron dvigatellar uchun  $\eta = 0,7 \dots 0,9$  bo‘lib,  $\eta$  ning yuqori qiymati katta quvvatli dvigatellarga taalluqli, elektromagnit quvvatdan rotorda hosil bo‘lgan mexanik quvvatni ayirib rotor chulg‘amining qizishi uchun sarflanadigan quvvat  $R_{m.rot}$  aniqlanadi, ya’ni  $R_{m.rot} = R_{em} - R_{mex}$ . Rotorda hosil bo‘lgan mexanik quvvatni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$P_{mex} = M \cdot \omega_2 = M \cdot \frac{2 \cdot \pi \cdot n_2}{60}, \text{ Vt}, \quad (10.7)$$

bu yerda,  $M$  –dvigatelning aylantiruvchi momenti, nm

$n$  – rotorning minutiga aylanishlar soni, ayl/min.

Rotorga berilgan elektromagnit quvvat quyidagicha ifodalanadi:

$$P_{\text{ем}} = M \cdot \omega_1 = M \cdot \frac{2 \cdot \pi \cdot n_1}{60}, \quad (10.8)$$

$n_2 = n_1(1 - S)$ , bo‘lgani uchun  $R_{m,rot}$  qiymati quyidagicha ifodalanadi:

$$P_{m,pom} = P_{\text{ем}} - M \frac{2 \cdot \pi \cdot n_1(1 - S)}{60} = P_{\text{ем}} - P_{\text{ем}}(1 - S) = P_{\text{ем}} \cdot S, \quad (10.9)$$

Demak, 10.9. ifodaga binoan rotor chulg‘amining qizishi uchun sarflanadigan quvvat isrofi sirpanishga to‘g‘ri proporsionaldir.

4. Asinxron dvigatellarning mexanik tavsifini  $S = f(M)$  bog‘lanish bilan ifodalash qulayroq buladi. Mexanik tavsif tenglamasini keltirib chiqarishda rotor chulg‘ami statornikiga keltirilgan asinxron dvigateining ekvivalent sxemasidan va (10.8) ifodadan foydalaniladi. 10.8. ifodaga binoan asinxron dvigateining

aylantiruvchi momenti  $M = \frac{P_{\text{ем}}}{\omega_1}$ . Bu ifodadagi  $P_{\text{ем}}$  o‘rniga uning (10.9)dan

aniqlangan  $P_{\text{ем}} = \frac{P_{m,pom}}{S}$  qiymati qo‘yilib, quyidagi hosil qilinadi:

$$M = \frac{P_{\text{ем}}}{\omega_1} = \frac{P_{m,pom}}{\omega_1 \cdot S} = \frac{m \cdot I_2^2 \cdot R_2}{\omega_1 \cdot S}, \text{ nm, (10.10)}$$

Ifoda 10.10.ga binoan aylantiruvchi momentning qiymati rotor cho‘lg‘amining qizishi uchun sarflanadigan quvvat isrofiga to‘g‘ri proporsionaldir. Rotor parametrlerini stator cho‘lg‘amiga keltirishda uning misidagi quvvat isrofining qiymati o‘zgarmas, ya’ni  $I_2^2 R^2 = (I_2^\kappa)^2 R_2^\kappa$  bo‘lganligidan (10.10) ni qo‘yidagicha ifodalash mumkin:

$$M = \frac{m \cdot (I_2^\kappa)^2 \cdot R_2^\kappa}{\omega_1 \cdot S}, \text{ nm, (10.11)}$$

bu erda,  $m$ -fazalar soni bo‘lib, uch fazali asinxron dvigateel uchun  $m=3$ . Ifoda (10.11) dagi  $I_2^\kappa$  o‘rniga G-simon ekvivalenti sxemadan aniqlangan

$I_2^\kappa = \frac{U_1}{\sqrt{(R_1 + \frac{R_2^\kappa}{S})^2 + (X_1 + X_2^\kappa)^2}}$  qiymatini qo‘yib mexanik tavsifning qo‘yida-

gi tenglamasi hosil qiliandi:

$$M = \frac{3 \cdot U_{1\phi}^2 \cdot R_2^\kappa}{\omega_1 \cdot \left[ \left( R_1 + \frac{R_2^\kappa}{S} \right)^2 + (X_1 + X_2^\kappa)^2 \right] \cdot S} = \frac{3 \cdot p \cdot U_{1\phi}^2 \cdot R_2^\kappa}{2 \cdot \pi \cdot f_1 \left[ \left( R_1 + \frac{R_2^\kappa}{S} \right)^2 + (X_1 + X_2^\kappa)^2 \right] \cdot S}, \quad (10.12)$$

Ushbu (10.12) ifodaga binoan asinxron dvigatel aylantiruvchi momentining qiymati elektr tarmog‘idan statorga beriladigan kuchlanishning kvadratiga proporsional, ya’ni  $M = U_{1\phi}^2$ , bo‘ladi. Demak, kuchlanishning bir oz o‘zgarishida aylantiruvchi momentning keskin o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Bu asinxron dvigatelning asosiy kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Mexanik tavsifni qurish uchun  $S$  o‘rniga uning turli yuklanmalardagi  $S=0\dots I$  gacha bo‘lgan qiymatlari qo‘yilib, (10.12) ifodadan  $S$  ning bu qiyatlariga tegishli aylantiruvchi momentlar aniqlanadi. Bu qiyatlarga binoan mexanik tavsifni qurishda  $U_{1\phi}$  va  $F_1$  o‘zgarmas deb qabul qilinadi. Aylantiruvchi momentning ishga tushirishdagi  $M_{ish}$  qiyatini aniqlash uchun (5.3) ifodadagi  $S$  o‘rniga uning ishga tushirishdagi  $S=I$  qiyatini qo‘yish kifoya. Bunda  $M_{ish}$  uchun qo‘yidagi ifoda olinadi:

$$M_{ish} = \frac{3U_{1\phi}^2 R_2^K}{\omega_1 \cdot \left( (R_1 + R_2^K)^2 + (X_1 + X_2^K)^2 \right)}, \quad (10.13)$$

Aylantiruvchi momenining maksimal qiyatini aniqlash uchun (10.12) ifodadan  $\frac{dM}{dS}$  hosila olinib, uni nolga tenglash lozim. Buning natijasida maksimal aylantiruvchi momentga tegishli sirpanishning qo‘yidagi kritik qiyati aniqlanadi:

$$S_{kp} = \pm \frac{R_2^K}{\sqrt{R_1^2 + (X_1 + X_2^K)^2}} \simeq \pm \frac{R_2^K}{X_1 + X_2^K} \quad (10.14)$$

bu erda  $R_1$  qiyati  $(X_1 + X_2^K)$  ga nisbatan ancha kichik bo‘lgani uchun hisobga olinmaydi. (5.3) dagi  $S$  ning o‘rniga uning (10.14) dagi kritik qiyatini qo‘yib, aylantiruvchi momentning qo‘yidagi maksimal qiyati aniqlanadi:

$$M_{max} = \pm \frac{3U_{1\phi}^2}{2\omega_1 \left[ \sqrt{R_1^2 + (X_1 + X_2^K)^2} \pm R_1 \right]} \simeq \pm \frac{3U_{1\phi}^2}{2\omega_1 \left[ (X_1 + X_2^K) \pm R_1 \right]}, \quad (10.15)$$

(10.14) va (10.15) ifodalardagi musbst ishora asinxron mashinaning dvigatel va tormoz rejimlariga tegishli bo‘lib, bunda  $S > 0$ , manfiy ishora esa, asinxron mashinaning generator rejimiga tegishli bo‘lib,  $S < 0$ , bo‘ladi.

Ifoda (10.12)ga binoan mexanik tavsifni kurish uchun  $R_1$ ,  $R_2^K$   $X_1$  va  $X_2^K$  lar ma’lum bo‘lishi kerak, ammo dvigatelningning bu parametrlari kataloglarda ko‘pincha berilmaydi. Shu sababli (10.12) ifodani (10.15) ifodaga bo‘lib, mexanik tavsifni hisoblash uchun qulay bo‘lgan quyidagi tenglama olinadi:

$$M = \frac{2M_{max}}{\frac{S}{S_{kp}} + \frac{S_{kp}}{S} + 2q}, \quad (10.16)$$

bu erda  $q = \frac{R_1}{\sqrt{R_1^2 + (X_1 + X_2)^2}} = S_{kp} \frac{R_1}{R_2}$ . Odatda, asinxron dvigatellar uchun  $R_1 \approx R_2$  bo'lgani uchun  $q = S_{kp}$  bo'ladi. Katta kuvvatli asinxron dvigatellarda  $R_1$  ning qiymati juda ham kichik bo'lgani uchun  $R_1 \approx 0$  deb qabul qilinsa, u holda  $q = 0$  bo'ladi. Bunda mexanik tavsif tenglamasi yana ham soddalashib quyidagicha ifodalanadi:

$$M = \frac{2M_{max}}{\frac{S}{S_{kp}} + \frac{S_{kp}}{S}}, \quad (10.17)$$

(10.17) ifodaga binoan mexanik tavsifni qurish uchun  $S_R$  ni aniqlab olish kifoya. Buning uchun (10.17) ifodadagi  $M$  va  $S$  o'mniga ularning nominal qiymatlarini quyib, undan  $S_{kr}$  qiymati quyidagicha topiladi:

$$S_{kp} = S_n \left( \lambda \pm \sqrt{\lambda^2 - 1} \right) \quad (10.18)$$


bunda  $\lambda = \frac{M_{max}}{M_n}$  - asinxron dvigatelning o'ta yuklanish qobiliyatini xarakterlovchi koeffitsient, normal tuzilishdagi dvigatellar uchun  $\lambda = 1,8...2,5$  bo'ladi. Bu koeffitsientning qiymati dvigatel kataloglarida beriladi;

$$M_n = 9550 \frac{P_n}{n_n} \text{HM} = 975 \frac{P_n}{n_n} \text{kGm} - aylantiruvchi momentning nominal qiymati;$$

$R_n$  - dvigatel validagi foydali nominal quvvat, *kvt*. Nominal quvvatning qiymati ham dvigatel shchitida beriladi;

$n_n$  - nominal yuklanma bilan ishlayotgan dvigatelning nominal tezligi bo'lib, uning  $\frac{a_{ul}}{m_{in}}$  birligidagi qiymati ham dvigatel shchitida berilgan bo'ladi. Aylantiruvchi momentning maksimal qiymati  $M_{maks} = \lambda M_n$  bo'ladi.

(10.18) ifodadagi  $(\pm)$  ishoraning musbat dvigatel, manfiysi esa generator rejim-lariga tegishlidir. SHunday qilib, sirpanishga turli, ya'ni,  $S=O...I$  gacha qiymatlar berib, ularga tegishli aylantiruvchi moment qiymatlari (10.18) ifodadan osongina aniqlanadi. Shakl 10.4.da qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatelning (10.17) ifoda asosida qurilgan mexanik tavsifi ko'rsatilgan.



Shakl 10.4. Asinxron dvigatelning mexanik tavsifi.

Mexanik tavsifning  $S = 0 \dots S_{kr}$  bo‘lagi uning ish yoki turg‘un qismi,  $S=S_{kr} \dots 1$  bo‘lagi esa uning beqaror yoki turg‘un bo‘lmagan qismi deyiladi. Tavsifning turg‘un qismida ishlayotgan dvigatel yuklanmasi berilgandagiga nisbatan  $M_{s1}$  yoki  $M_{s2}$  ga o‘zgarib qolguday bo‘lsa, u holda aylantiruvchi momentning qiymati o‘zgarib momentlar muvozanati, ya’ni  $M = M_{s1}$  yoki  $M = M_{s2}$  avtomatik ravishda tiklanadi.

Haqiqatdan, mexanik tavsif ifodasiga binoan yuklanma o‘zgarishi bilan sirpa- nish ham o‘zgaradi. Sirpanishning o‘zgarishi bilan esa

$$I_2^k = \frac{U_1}{\sqrt{\left(R_1 + \frac{R_2^k}{S}\right)^2 + (X_1 + X_2^k)^2}}$$

ifodaga binoan tok  $I_2^k$  qiymati va demak,

aylantiruvchi moment qiymati avtomatik ravishda o‘zgaradi. Agar yuklanma, ya’ni qarshilik momenti  $M_s$  ning qiymati aylantiruvchi momentning  $M_{maks}$  qiymatidan bir oz ortib ketguday bo‘lsa, u holda mexanik tavsifga binoan tezlik tabiiy ravishda pasayadi. Bunda dvigatelning aylantiruvchi momenti ko‘payish o‘rniga kamayib qoladi va natijada, momentlar muvozanati tiklana olmay, dvigatel o‘z-o‘zidan to‘xtab qoladi.

Demak, yuklanmaning qarshilik momenti tasodifan haddan tashqari katta qiymatga ega, ya’ni  $M > M_{maks}$  bo‘lib qolsa, u holda asinxron dvigatel avtomatik ravishda to‘xtab, shu bilan birga o‘z-o‘zini himoyalab qoladi. Asinxron dvigatelning bu xususiyati uning afzalliklaridan biri hisoblanadi. Aylantiruvchi momentning qiymati  $M \equiv U_{1\phi}^2$  bo‘lgani elektr tarmog‘idagi kuchlanish  $U_{If}$  ning qiymati esa 5 ... 10% ga o‘zgarib turishi sababli asinxron dvigatelning katalogda berilgan  $M_{maks}$  qiymatini amaliy hisoblashlarda 0,8 koeffitsientiga ko‘paytirib, uning qisqa vaqt davomida nominalga nisbatan ortiqroq yuklanma bilan ishslash qobiliyati, ya’ni

$M_{maks} = 0,8 M_{maks} = 0,8 (1,8 + 2,5) M_n$  aniqlanadi. Asinxron dvigatel aylantiruvchi momentining  $M_{maks}$  qiymati rotor zanjiridagi aktiv qarshilikka bog‘liq emas, ammo kritik sirpanishning qiymati  $R_2^k$  ga tug‘ri proporsional. O‘rtacha quvvatli qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatellari uchun  $S_{kr} =$

$0,12 \dots 0,2$  bo‘lib, katta quvvatlilarda  $S = 0,04 \dots 0,05$  bo‘ladi. Rotor chulgamiga tashqi qarshi-lik kiritilmagan faza rotorli dvigatellar uchun  $S_{kr} = 0,08 \dots 0,3$  ga teng bo‘ladi.

5. Asinxron dvigatelning ishga tushirish toki,  
 $I_2^\kappa = \frac{U_1}{\sqrt{(R_1 + \frac{R_2^\kappa}{S})^2 + (X_1 + X_2^\kappa)^2}}$  ifodasidagi  $S$  o‘rniga uning  $S = 1$  qiymatini qo‘yib quyidagicha aniqlanadi:

$$I_{uum} = \frac{U_{1\phi}}{\sqrt{(R_1 + R_2^\kappa)^2 + (X_1 + X_2^\kappa)^2}}, \quad (10.19)$$

Qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigatellarning ishga tushirish toki  $I_{ish} = (5 \dots 8)I_n$  bo‘lib, uning nisbiy qiymati  $I_{ish}/I_n$  dvigatel kataloglarida beriladi. Ishga tushirish toki katta bo‘lishiga qaramay asinxron dvigatelning ishga tushirish momenti nisbatan kichik, ya’ni  $M_{ish} = (1 \dots 2)M_n$  ni tashkil qiladi. Ishga tushirish momentining tok singari katta qiymatga ega bo‘lmeligini aylantiruvchi momentning quyidagi (5.11) ifodasidan tushunish mumkin. Asinxron dvigatelning

vektor diagrammasiga binoan  $I_2^\kappa = \frac{R_2^\kappa}{S} = E_2^\kappa \cdot \cos \psi_2$ . Bu ifodadan aniqlangan

$\frac{R_2^\kappa}{S}$  qiymatni (5.2) ifodaga qo‘yib qyyidagi olinadi:  $M = \frac{m \cdot I_2^\kappa}{\omega_1} \cdot E_2^\kappa \cdot \cos \psi_2$ ,

ammo  $E_2^\kappa = E_1 = 4,44 \cdot k_m \cdot W_1 \cdot f_1 \cdot \Phi_m$  bo‘lgani uchun aylantiruvchi moment uchun quyidagi ifoda olinadi:

$$M = \frac{mI_2^\kappa}{\omega_1} E_2^\kappa \cos \varphi_2 \quad (10.20)$$

Ammo  $E_2^\kappa = E_1 = 4,44 \cdot k_m \cdot W_1 \cdot f_1 \cdot \Phi_m$  bo‘lgani uchun aylantiruvchi moment uchun quyidagi ifoda olinadi.

$$M = \frac{mI_2^\kappa}{\omega_1} 4,44 k_{q1} W_1 f_1 \Phi_m \cos \varphi_2 = k_m \Phi_m I_2^\kappa \cos \varphi_2, \text{HM}, \quad (10.21)$$

bunda  $k_m = \frac{m \cdot 4,44 k_{q1} W_1 f_1}{\omega_1} = \text{coons}$ -moment doimiysi;

$I_2^\kappa \cos \varphi_2$  - rotor tokiniig aktiv qismi.

Demak, asinxron dvigatelning aylantiruvchi momenti ham o‘zgarmas tok dvigateliniki singari ifodalanim, magnit oqimi va tokning aktiv qismi bilan

aniqlanadi. Ishga tushirish paytida  $S = 1$  bo‘lgani sababli rotor induktiv qarshiligining maksimal qiymati  $X_{2_{max}} = 2 \cdot \pi \cdot f_2 \cdot L_2 = 2 \cdot \pi \cdot f_1 \cdot L_2$  da moment. ifodasidagi  $\cos\varphi_2$  o‘zining minimal qiymatiga ega. SHu sababli  $M_{isht}$  ning qiymati  $M_n$  ga yaqinroqdir. Bu esa asinxron dvigatelning kamchiligidir. haqiqatdan,  $M_{isht} = M_n$  bo‘lsa, nominal yuklanmaa bilan asinxron dvigateli ishga tushirish imkonи umuman bo‘lmaydi. Dvigatel kataloglarida  $\frac{M_{uum}}{M_n}$  qiymati beriladi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Asinxron mashinalarga tushuncha bering.
2. Asinxron mashinalarning ulanish sxemalarini tushuntiring.
3. Stator chulg‘amini tushuntiring.
4. Qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron dvigateli tushuntiring.
5. Sirpanish deb nimaga aytildi?
6. Ainxron dvigatelning aylanish tezligi formulasini tushuntiring.
7. Dvigatelga beriladigan aktiv quvvat formulasini tushuntiring.
8. Stator chulg‘amining qizishiga sarflanadigan quvvat isprofini tushuntiring.
9. Elektromagnit quvvatni tushuntiring.
10. Rotor chulg‘amining qizishiga sarflanadigan quvvat isrofini tushuntiring.
11. Mexanik quvvatni tushuntiring.
12. Qo‘sishmcha quvvat isrofini tushuntiring.
13. Dvigatelning foydali ish koeffitsentini tushuntiring.
14. Asinxron dvigatellarning mexanik tavsifi ifodasini tushuntiring.
15. Asinxron dvigatelning aylantiruvchi momentini tushuntiring.
16. Ishga tushirish momentini tushuntiring.
17. Sirpanishning kritik qiymatini tushuntiring.
18. Aylantiruvchi momentning maksimal qiymatini tushuntiring.
19. Asimnxron dvigatelning o‘ta yuklanish qobiliyatini xarakterlovchi koeffisentni tushuntiring.
20. Nominal aylantiruvchi momentni tushuntiring.
21. Dvigatel validagi nominal foydali nominal quvvatni tushuntiring.
22. Nominal yuklama Bilan ishlayotgan dvigatelning nominal tezligini tushuntiring.

### **Nazorat uchun test savollari:**

- 1. Asinxron mashina pasportida 380/220 raqamlari keltirilgan, uning o‘ramlarini ulash usullarini aniqlang**
  - A. Yulduz usulida ulab, 380 Volt liniya kuchlanishi yoki uchburchak usulida ulab, 220 Volt faza beriladi
  - B. Yulduz usulida ulab, unga 220 Volt faza kuchlanishi beriladi
  - D. Uchburchak usulida ulab, unga 380 Volt liniya kuchlanishi beriladi

- E. Yulduz usulida ulab, unga 220 Volt faza kuch-lanishi, uchbur-chak usulida ulab, unga 380 Volt liniya kuchlanishi beriladi

**2. Sinxron mashinalari rotorining aylanish tezligini aniqlang**

- A.  $n(o)=60f/R$
- B.  $n=60f/R(S-1)$
- C.  $n=60R/f$
- D.  $n=60f/R (1-S)$

**3. Asinxron mashinalari statoridagi magnit maydoninig aylanish tezligini aniqlang**

- A.  $n(o)=60f/R$
- B.  $n(r)=60f/2R$
- C.  $n(r)=rn/60$
- D.  $n(a)=60R/f$

**4. Asinxron mashinalarini valida nagruzka oshganda quvvat koeffisienti va salt ishlash toki-ning o'zgarishini aniqlang**

- A. Tok va quvvat koeffisienti oshadi
- B. Tok va quvvat koeffisienti o'zgarmaydi
- C. Tok oshadi quvvat koeffisienti oshmaydi
- D. Tok va quvvat koeffisienti kamayadi

**5. Asinxron va sinxron mashinalar o'rtasidagi farqni aniqlang**

- A. Asinxron mashinalarda ratorni aylanish statoridagi magnit maydonini aylanishiga teng emas sinxron mashinalarida ular teng
- B. Sinxron mashinani aylanish tezligi nagruzkaga bog'liq asinxron mashinani aylanish tezligi nagruzkaga bog'liq emas u o'zgarmaydi
- C. Sinxron mashinani ratorini aylanish tezligi statordagi magnit maydonini aylanishi bilan teng emas asinxron mashinalarida ular teng
- D. Sinxron mashinani aylanish tezligi nagruzkaga bog'liq emas va o'zgarmaydi asinxron mashinalarida aylanish tezligi kamayishi mumkin

**6. Asinxron mashinalarda qo'llanadigan qisqa tutashgan o'ramlarning vazifasini aniqlang**

- A. Mashinani ikkilamchi cho'lg'амини vazifasini bajarib unda EYUK va tok induksiyalanadi
- B. U yurma toklarni kamaytirish uchun
- C. Aylanish tezligini oshirish uchun
- D. Aylanish tezligini kamaytirish uchun

**Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov A.S. va boshqalar. Elektrotexnika va elektronika darslik „O'qituvchi“. T.: 1995. -469 6.
2. Majidov S. Elektr mashinalari va elektr yuritma darslik, - T.: „O'qituvchi“, 2002y.
3. Majidov S. va b. Elektrotexnika va elektronika asoslardan laboratoriya ishlari, 1 va 2 qism, - Toshkent, TIQXMII 1992y.
4. Jabborov N.G., Baratov R.J. Elektrotexnika (ma'ruzalar matmi)T, TIQXMII, 2000y.

5. Berdiyev U.T. Elektr yuritma asoslari. (ma’ruza matni, Toshkent., TIQXMIL,2000y.

### **Qo’shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezentlik va bunyodkorlik-milliy g’oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021. – 36 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O’zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.
4. Majidov S. „Elektrotexnika ma’lumotnoma“. Toshkent, “O’zbekiston”.1994.-262b.
5. Majidov S.,Amirov S.F.,Baratov R.J. „Elektrotexnikaga oid masalalarini yechish uchun uslubiy ko’rsatmalar“, - Toshkent, 1991.1-qism. O’zgarmas tok zanjirlari. 24 bet.
6. Majidov S.,Amirov S.F.,Baratov R.J. „Elektrotexnikaga oid masalalarini yechish uchun uslubiy ko’rsatmalar“, - Toshkent, 1991. 2-qism.Bir fazali o’zgaruvchan tok zanjirlari. 31 bet., 3-qism. Uch fazali zanjirlar.24 b.
7. Majidov S. „Elektrotexnika avtomatlarining ruscha-o’zbekcha lug’ati“. Toshkent, „O’qituvchi“, 1992.-128b.
8. Charles A. Gross Thaddeus A. Roppel. Fundamentals of Electrical Engineering. CRC Press Taylor & Francis Group, 2019.- 465 r.
9. Abdug‘aniev Z., Abdug‘anieva Sh.Z., Xoshimova M. S. „Elektrotexnika, elektronika va elektr yuritma“ fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy ko’rsatma. Uslubiy ko’rsatma Samarqand veterinariya meditsinasi institutining Kengashida tavsiya qilingan. Bayonnomma №5.28.12.2018.
10. Abdug‘aniev Z., Abdug‘anieva Sh.Z., Xoshimov S.Xoshimova M. S. “Traktor va avtomobilarning elektr jihozlari” fanidan amaliy mashg’ulotlarni bajarish uchun tayyorlangan uslubiy ko’rsatma. Uslubiy ko’rsatma Samarqand veterinariya meditsinasi institutining Kengashida tavsiya qilingan. Bayonnomma №7.23.02.2019.

### **Axborot manbaalari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) -O’zbekiston Respublikasi hukumat portal.
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) -O’zbekiston Respublikasi Qonun xujjalari Ma’lumotlari milliy bazasi
3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).
4. wikipedia.org
5. [electrorno.ru](http://electrorno.ru)
6. [www.youtube.com](http://www.youtube.com)
7. [electricalschool.info](http://electricalschool.info)
8. [www.eltech.ru](http://www.eltech.ru)
9. [retrolib.narod.ru](http://retrolib.narod.ru)